

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmatlar sohasida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi iqtisodiy o'sishning asosiy omillari shakllanmoqda.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga etkazib berish, shu qatorida ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish, shuningdek, sataroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyohlik agentliklari va boshqalar kiradi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi - 2299,9 mlrd. so'm




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati - 96,4 %

2020-yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2299,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 96,4 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarni, tumanlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 53,3 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.


Bundan tashqari, eng katta ulush Urganch (6,7 %), Xonqa (4,7 %) va Gurlan (4,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Tuproqqal'a (1,4 %), Yangibozor tumanida (3,1 %) va Yangiariq tumanida (3,2 %) kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-may oylarida ularning ulushi 27,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,2 %), moliyaviy xizmatlar (21,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,8 %) bo'yicha qayd etildi.

2020-yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi


(jami hajmga nisbatan), %



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,6 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar – 1,9 %, shuningdek, ijara xizmatlari - 2,0 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha - 2,3 % uncha yuqori bo'lmagan ulush qayd etildi.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy, transport va savdo xizmatlari tarkibidagi ulushining o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-may oyida 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (150,9 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (10,2 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Transport xizmatlarining (25,8 mlrd. so'mga) kamayishi kuzatildi.

**2020-yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2299,9	96,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	134,4	111,4
moliyaviy xizmatlar	489,9	133,5
transport xizmatlari	510,2	87,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	486,3	87,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	53,0	80,3
savdo xizmatlari	623,9	89,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	58,4	78,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	111,5	92,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	36,3	83,8
ijara xizmatlari	46,7	97,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	69,3	82,5
shaxsiy xizmatlar	66,4	83,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,4	129,6
boshqa xizmatlar	57,5	76,7

**2020-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	2299,9	96,4
Urganch shahri	1226,9	102,6
Xiva shahri	75,1	99,3
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	93,5	93,7
Gurlan	97,7	89,8
Qo'shko'pir	96,0	92,5
Urganch	154,8	76,5
Hazorasp	102,0	88,0
Tuproqqal'a	32,3	86,8
Xonqa	107,6	92,3
Xiva	78,5	90,7
Shovot	90,8	96,8
Yangiariq	74,6	93,3
Yangibozor	70,1	97,0

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2020-yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




2020-yil yanvar-may oylarida 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar (133,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (129,6 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111, %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Shahar va tumanlar o'rtasida Urganch shahri (1226,9 mlrd. so'm) yetakchilik qilmoqda. 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 102,6 % ni tashkil etdi.


Eng kichik hajm Tuproqqal'a tumanida (32,3 mlrd. so'm), Yangibozor tumanida (70,1 mlrd. so'm) va Yangiariq tumanida (74,6 mlrd. so'm) kuzatildi.

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2020-yil yanvar-may oylarida eng yuqori o'sish sur'atri Urganch shahrida (102,6 %) qayd etildi.

2020-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



2020-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2020-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 623,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 27,1 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 10,2 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 76,7 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,4 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,9 % ni egallaydi.

**2020-yil yanvar-may oylarida
transport xizmatlarining tarkibi, %**




Transport xizmatlarining umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlari - 97,7 %, omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari – 1,7 %, pochta va kurerlik xizmatlari – 0,6 % ni tashkil etdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

2020-yil yanvar-may oylarida viloyat bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 134,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (97,1 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 489,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati 133,5 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (92,5 %) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 74,0 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,0 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi, %




Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiati, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi.

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi 53,0 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 80,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan davr mobaynida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining ulushi 2,3 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 59,6 ming so'mga oshib, 1230,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati 94,8 % qayd etildi.

ViLOYAT bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar




Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Shahar va tumanlar o'rtasida aholi jon boshiga ko'rsatkichi bo'yicha Urganch shahri (8519,9 ming so'm) yetakchilik qilmoqda. 2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Urganch shahri bo'yicha 101,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Hazorasp tumanida (515,5 ming so'm), Shovot tumanida (535,8 ming so'm) va Qo'shko'pir tumanida (558,5 ming so'm) kuzatildi.

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2020-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahrida (101,1 %) qayd etildi.

2020-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: K.Matchanov